To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

TARIXIY MANBALARDA – SOMONIYLAR DAVRI TARIXI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12600289

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlati tarixi haqida ma’lumot beruvchi tarixiy asarlar, ularning mualliflari va ushbu asarlarda Somoniylar davlatining tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Zayn al-axbor”, Tohiriylar, Safforiylar, “Tarixi Gardiziy”, “Tarixi Muborakshoh” “Tarixi Oli Mahmud”

Abu Lays Nasr ibn Muhammadning (911-1003) asarlaridan Somoniylar davlatidagi diniy masalalar haqida qimmatli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Bahrul – ulum” asari Xuroson va Movorounnahrda yaratilgan ilk islomiy asar bo‘lib, tafsir ilmining asosi sifatida baholanadi.

Tarixiy manbalarda allomaning ilmiy faoliyati sermahsul kechgani, uning 40 dan oshiq nomda asarlar yaratgani haqida ma’lumotlar mavjud. Tadqiqotchilar fikrlariga ko‘ra, bu asarlarning 19 tasi fiqhga, ya’ni islom qonunlari va qonunshunosligiga bag‘ishlangan. Alloma hayotda va ilmda o‘zi uchun adolat va haqqoniylikni bosh mezon qilib olgan. Bu xususda asarlaridan biri so‘zboshisida “Samarqandda 40 yil fatvo berdim. Ushbu 40 yilda ilgari o‘tgan allomalarning hayotda amaliy ifodasini topgan so‘zlariga amal qildim”.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Abu Lays Nasr ibn Muhammad Somoniylar davrida Samarqanda qozi sifatida faoliyat olib borgan va shariat qoidalari asosida faoliyat olib borgan. Alloma mashhur mutafakkir Abu Mansur Moturidiy bilan bir davrda yashagan. Unga munosib shogird bo‘la olgan. Shuning uchun uning ham Abu Lays Nasr ibn Muhammadning qabri Chokardiza qabristonida Abu Mansur Moturidiy qabri yaqinida bo‘lgan. Keyingi yillarda Chokardiza qabristoni o‘rnida Abu Mansur Moturidiy ziyoratgohining tiklanishi uning shogirdi Abu Lays Samarqandiyga ham ko‘rsatilgan ehtirom ramziga aylandi. Abu Lays Samarqandiyning zamondoshlari unga “Imom ul-xuda” ya‘ni (To‘g‘ri yo‘l imomi) degan yuksak nom beradilar. Somoniylar haqidagi ma’lumotlar mog‘ullar davriga qadar O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha qimmatli bo‘lgan arab va fors tillarida yozilgan deyarli barcha manbalarda IX–XII asrlarda yozilgan tarixiy – geografik va biografik asarlarda hamda boshqa manbalarda keltirilgan. Somoniylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan biroq bizgacha yetib kelmagan asarlarda xususan, “Tarix-i Ol-i Somon” (Somoniylar xonadoni tarixi) nomli maxsus asar ham mavud.

Mirxond. Somoniylar davlati haqidagi qimmatli manbalarni mog‘ullar davridan keyin yaratilgan asarlarda ham uchratish mumkin. Ushbu asarlar bizgacha yetib kelmagan manbalar olingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shunday asarlardan biri Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Somoniylar hukmronligi tarixiga oid alohida bo‘lim bag‘ishlangan. Somoniylar sulolasi haqida boy ma’lumotlar hujjat manba hisoblangan numizmatik materiallar ham mavjud bo‘lib, ular yozma manbalardagi ma’lumotlarni anchagina to‘ldiradi va aniqliklar kiritadi.

O‘rta Osiyoning qadimiy maskanlarida xususan, Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Termiz, Balx, Marv, Niso va boshqa shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan IX–X asrlarga oid numizmatik ma’lumotlar ham Somoniylar tarixini o‘rganishda, muhim tarixiy materiallar bo‘lib xizmat qildi. Keyingi davrlarda XX asr tar-

ixshunosligida Somoniylar davlati tarixi to‘g‘risida V.Bartold, E.A.Davidovich, N.Negmatov, A.Semyonov, E.Sumbaur, S.Len-Pul, K.Bosvort asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tarixshunosligida A.Ziyo, Sh.Kamoliddinov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari e’tiborga sazovordir.

Akademik Abdulahad Muhammadjonov ham o‘zining ilmiy izlanishlari va tadqiqotlariga asoslanib, Somoniylar davrida mudofaa devori vazifasini bajargan “Kampirak devori” haqida o‘zining qimmatli ma’lumotlarini keltirib o‘tdi. Buxoroda o‘tkazilgan arxeologik ekspeditsiya natijasida moddiy madaniyat izlari orasida 15,5 metr hamda 18,5 metr chuqurlikda kovlab ochilgan qadimgi ikki mudofaa devorlari qoldiqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, birinchi mudofaa devori 2,5-3, ikkinchisi 2-2,5 metr balandlikda saqlangan. Miri Arab madrasasining yaqinida olib borilgan qazishmalar chog‘ida 4,5 metr chuqurlikda shaharning qadimgi mudofaa devorlari qoldiqlari qayd etildi. Devor paxsa hamda xom g‘ishtdan bo‘lib, 5-6 metr balandlikda saqlangan. Ushbu mudofaa inshooti V-VI asrlarda qad ko‘targan bo‘lib, bir necha bor ta’mirlanib, qayta-qayta tiklangan. Shu sababdan ilk o‘rta asrlarda kelib uning kengligi 17 metrga yetgan degan ilg‘or fikrlarni ilgari surdi. Professor M.E.Masson ham Kanpirak devori haqida biroz ma’lumot berib, u manbalar asosida devorning uzunligini 200 kilometr deb aniqlagan. Qadimgi Buxoro vohasining obod yerlarini tashqi dushmandan mudofaa qilish uchun qurilgan bu devorning uzunligi 350-400 kilometr masofaga cho‘zilgan bo‘lib, uning kengligi 12-14 metr va balandligi 8-10 metr bo‘lgan. Asrlar davomida tabiat kuchlari va o‘zaro urushlar natijasida devor nurab yemirilib, hozirgi uzun ketgan sun’iy bir qir holiga kelib qolgan. Qirning balandligi turli joylarda har xil bo‘lib, o‘rta hisobda 1 metrdan 3 metrgacha, hatto 4 metrgacha yetgan.

Muxtasar qilib aytganda, 2017-yilning 25-oktabrida Michigan Universitetida (AQSH) Xalqaro majlislar zalida “International Studies and Programms” dasturi doirasida Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti professori, tarix fanlari nomzodi Sh.Kamoliddin ”New Studies on the Samanids 9th and 10th centuries in Uzbekistan” (O‘zbekistonda Somoniylar davlati haqida) yangi tadqiqotlar mavsusida ma’ruza o‘qidi. Ushbu ma’ruza o‘zida Somoniylar davlatiga oid manbalar va ularning o‘rganish jarayonlari, yurtimizda olib borilayotgan ilmiy eng so‘ngi izlanishlarning natijasi haqida keng ma’lumotlar berdi. Ma’ruza so‘nggida Osiyo va Yevrosiyo tadqiqotlar markazining mudiri professor Norman Grexem ham Somoniylar davlati xususida o‘z fikr mulohazalarini bildirib o‘tdi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Somoniylar davlati tarixiga oid manbalarning ko‘pligi va ulardagi ma’lumotlarning aniqligi Somoniylar davlatida ilm fan olimlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligidan dalolat beradi. Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan barcha tarixiy manbalardagi ma’lumotlar umuman bir-birini inkor etmaydi. Aksincha ulardagi ma’lumotlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, yaxlit bir tarixiy ma’lumotlarni ochib berishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Неьматов Н. Давлати Сомониён. – Ирфон. 1999. Б. 328.
2. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.
3. Каримов И. Юксак маьнавият – енгилмас куч. –Т:. Маънавият. 2008. Б.108.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
5. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O‘qituvchi. 2011. B. 352.
6. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
8. Is’hoqov M va Alimova R. Arxivshunoslik. O‘quv qo‘llanma.-T:,2017. B. 184.